



TILAK NUTQIY JANRINING TASHKILY VA MATNIY KOMPOZITSION TUZILISHI

Sayfutdinova D. P.

Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tashkiliy kompozitsion tuzilish, mikromatn, gipermatn, lingvistik atributlar, ijobiy tilaklar, salbiy tilaklar, og'zaki tilaklar, yozma tilaklar, ichki va tashqi nutq.

Ключевые слова: организационно-композиционная структура, микротекст, гипертекст, лингвистические признаки, положительные пожелания, отрицательные пожелания, вербальные пожелания, письменные пожелания, внутренняя и внешняя речь

Key words: organizational-compositional structure, microtext, hypertext, linguistic features, positive wishes, negative wishes, verbal wishes, written wishes, internal and external speech.

Kirish. Tilak nutqiy janri nutqiy kommunikatsiyada o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsiya va uslubiy xususiyatlarga ega bir butun nutqiy janrdir. Tilak nutqiy janri muayyan so'zlovchi, tinglovchi, vaqt, makon, zamon kabilarga egaligi, turli sohalarda uslubiy xilma-xilligi, shuningdek, tilakning verbal, noverbal vositalari va lingvistik atributlari, nutqiy vaziyatga ko'ra funksional o'zgarishi, maqtov, tabrik, duo, qadah so'zi kabi nutqiy janrlar tarkibida ularni to'liq sistema sifatida voqye'lantirish va mazmuniy kengaytirish, to'ldirish, boyitish xususiyati bilan boshqa nutqiy janrlardan farqlanadi. Tilak nutqiy janri nutqiy kommunikatsiyada mustaqil janr sifatida namoyon bo'lganligi bois unda adresant va adresat munosabatlari, nutqiy vaziyat, uslubiy xususiyatlarining o'ziga xosligi masalalari uni diskursiv, sotsiolingvistik, pragmalingvistik (semiotik), lingvomadaniy, antropolingvistik kabi bir qator aspektlarda tadqiq qilishga chorlaydi. Ammo shuni aytish kerakki, muayyan nutqiy janrni bunday xususiyatlarini o'rganish, avvalo, uni to'liq lingvistik sistema sifatidagi belgilarini aniqlab olish zaruriyatini tug'diradi. Bunda tilak nutqiy janrining tashkiliy va matniy kompozitsion qurilishini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Tilak nutqiy janrining tashkiliy kompozitsion tuzilishi deyilganda uning boshqa nutqiy janrlar bilan gipermatn hosil qilishi nazarda



tutiladi. Shuni aytish kerakki, tilak nutqiy janri gipermatn hosil qilgan nutqiy janrlar tarkibida nutqni yakunlash vazifasini bajaradi. Turli ijtimoiy statusga ega shaxslarning rasmiy nutqi, tabrik, ma'ruza, murojaatnomalari tarkibida kelib, gipermatnning bir qismi, aniqrog'i, yakuniy qismi sifati ifodalanadi. Masalan,

O'zbekiston respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi Aziz vatandoshlar!

Jonajon diyorimizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda.

Mana shu shukuhli damlarda duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlarimizni, chet ellardagi qadrli vatandoshlarimizni – ko'pmillatli butun xalqimizni ushbu qutlug' ayyom bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir.

Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.

Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumini asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishni boshladik.

Ko'plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazdik.

Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.

Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.

Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalari, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog'cha va maktablar, madaniyat va sport ob'ektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.

Birgalikdagi mehnatimiz tufayli Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz, aziz vatandoshlarimga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024 yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qildik.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz.



Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarini, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratamiz.

Yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko‘paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko‘taramiz.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to‘liq safarbar etamiz.

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salamatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo‘lsin!

Go‘zal Vatanimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat Mirziyoev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ko‘rinadiki, ushbu tabrik nutqiy janri gipermatn shaklida ifodalanib, murojaat, tabrik, yutuqlar e’tirofi, minnatdorchilik, ma’lumot axborotlar (rejalar xronologiyasi), tilak, tabrik kabi ketma-ketlikdagi makro va mikromatn ko‘rinishidagi nutqiy janrlardan tashkil topgan. Bunda tilak nutqiy janri tabrik nutqiy janrining deyarli yakuniy qismini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan tilak nutqiy janrini tabrik nutqining yakunlovchi janri sifatida ham e’tirof etish mumkin.

Tadqiqot metodlari

Tilak nutqiy janrining matniy kompozitsion tuzilishi esa ikki usulda ifodalanadi:

1) gipermatn tarkibidagi mikromatnning bir qismi sifatida:

Masalan,

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salamatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman . Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo‘lsin! Go‘zal vatanimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Ushbu mikromatnda tabrik-tilak-duo nutqiy aktlari ketma-ketligidagi tilak nutqiy janri mikromatnning bir qismi bo‘lib ifodalanmoqda. Ammo shuni aytish kerakki, tilak nutqiy janri mikromatnning bir qismi sifatida boshqa bir

sintaktik butunlik tarkibida ifodalansa-da, tilak nutqiy janri mustaqil mazmuniy butunligini to'lig'icha saqlab qoladi. Demak, tilak nutqiy janri o'z mazmuniy tabiatiga ko'ra tabrik va duo kabi nutqiy janrlar bilan shakliy jihatdan bir sintaktik butunlik shaklida ifodalanishi mumkin.

2) tilak nutqiy janri mustaqil mikromatn sifatida:

Masalan, *Siz, muhtaram anjuman ishtirokchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.*

Ushbu mikromatn leksik-grammatik va sintaktik jihatdan bir butun matn sifatida shakllangan va tilak nutqiy janrini to'lig'icha ifodalaydi. Siz, muhtaram anjuman ishtirokchilariga jumlasini tinglovchini, tilayman jumlasini esa so'zlovchini ko'rsatadi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqiy maqsad tilak nutqiy janriga yo'naltilib, so'zlovchining tinglovchiga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilash istak-hoxishi borligini ifodalamoqda.

Shuni aytish kerakki, tilak nutqiy janri boshqa bir sintaktik butunlik tarkibida yoki bir butun sintaktik butunlikni tashkil qilishidan qat'iy nazar u mazmunan ikki qismdan modus va diktum qismlardan iborat bo'ladi. Modus qismining verbal vositalari men... tilayman shaklida, diktum qismi esa kelajakka ishora qiluvchi niyat, hohish mazmunidagi jummalardan tashkil topishi mumkin.

Masalan,

Sizlarga mustahkam sog'lik, sharaflil va mas'uliyatli faoliyatingizda yangi-yangi yutuqlar, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik, fayzu baraka tilayman. Jonajon O'zbekistonimiz, shahar va qishloqlarimizning obodligi, halqimiz farovonligi yo'lida qilayotgan mehnatlaringizning rohatini ko'ring! Qo'lingiz aslo dard ko'rmasin, aziz do'stlar!

Ushbu jummalarda tilayman va rohatini ko'ring, dard ko'rmasin jumlasini tilak nutqiy janrining xohish-istak mazmunidagi modusning verbal ifodasidir. Tinglovchiga mustahkam sog'lik, sharaflil va mas'uliyatli faoliyatida yangi-yangi yutuqlar, oilaviy baxt, xonadonlariga tinchlik, fayzu baraka, jonajon O'zbekiston, shahar va qishloqlarning obodligi, halq farovonligi yo'lida qilayotgan mehnatlarini rohatini ko'rmoqlikka, qo'llari aslo dard ko'rmaslikka qilinayotgan mazmuniy ishoralar tilak nutqiy janrining diktum qismidir. Sizlarga, aziz do'stlar kabi jumlar esa tinglovchini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Tilak nutqiy janrida uslubiy xususiyatlar o'ziga xos leksik, grammatik va sintaktik xarakter kasb etadi. Bunda rasmiy uslubda rasmiy so'zlarning qo'llanilishi, sintaktik butun gaplardan tashkil topishi, so'zlashuv uslubida esa tilak nutqiy janrining modus qismi tushib qolishi kabi holatlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Masalan, rasmiy uslubda:



O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga!

Siz, azizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor qutlab, jonajon yurtimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish yo'lidagi ezgu faoliyatingizda ulkan yutuqlar tilayman. Xonadonlaringizni xursandchilik, tinchlik-xotirjamlik va fayzubaraka hyech qachon tark etmasin! Doimo sog' bo'linglar, azizlar!

Shavkat Mirziyoev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Rasmiy uslubda ifodalangan tilak nutqiy janrida uning kirish qismida tinglovchilarga murojaatning mavjudligi va tilak nutqiy janri yakunida so'zlovchining shaxsi va mavqeyi aniq ko'rsatilishi shart. Ushbu rasmiy uslubdagi tilak nutqiy janrining so'zlovchisi Shavkat Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deya ko'rsatilgan, tinglovchilarga murojaat esa O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga! Siz kabi jumlar orqali ifodalangan.

So'zlashuv nutqida esa bu qismlar majburiy bo'lmay, ba'zan diktum qismning o'zi yetarlidir.

Omad, O'zbek o'g'lonlari!

Omad qo'shni Qozog'iston va O'zbekiston!

Agrolayf jamoasiga omad! kabi.

So'zlashuv uslubida tilak nutqiy janri boshqa nutqiy janrlar zanjirida turli funksional vazifalarni bajarishi ham mumkin:

Maqtov+tilak: *Juda chiroyli, juda ajoyib va ma'noli so'zlar (maqtov). Dunyoda tinchlik, O'zbekistonda rivojlanish bo'lsin! (tilak)*

Tarifga til o'jiz. Bizni to'y ham 90 yil bo'lgan. Ijodlaringizga chin yurakdan omad tilayman.

Maqtov+tilak+olqish: *Gap yuk, zur bo'libdi (maqtov). Birlik doimiy bulsin (tilak). Yashasin hamdo'stlik (olqish); Yashasin do'stlik! Butun dunyoda tinchlik bo'lsin!; Ofarin boshlig'imizga! Umri uzoq bo'lsin!*

Maqtov+tilak: *Zo'r, hammaga omad!*

Murojaat + tilak+ shukronalik: *Shavkat aka, omon bo'ling, yurtboshimiz, O'zbekistonni o'ylaydigan prezidentimizni ollo bergan bizga!*

Minnatdorchilik+da'vat+tilak: *Otamizga rahmat. O'zbekiston olg'a! Omad yor bo'lsin!*

Duo: *Alloh rozi bo'lsin sizdan!*

Murojaat+tilak+duo: *Musofirda uyidan uzoqda yurgan vatandoshlar. Sizlarga sog'lik va salomatlik bo'lsin. Uylaringa eson omon qaytib kelinglar kabi.*

Tilak nutqiy janri og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Yozma shakldagi tilaklar ham rasmiy va norasmiy ko'rinishga ega. Rasmiy yozma tilaklar turli

siyosiy nutqlar, tabrik, dasthat, ta'ziyanoma, tashakkurnoma, rasmiy siyosiy ma'ruzaning ayrim turlaridan tortib rasmiy tashkillashtirilgan turli siyosiy, ijtimoiy tadbir, konferensiya, seminar-treninglardagi yozishmalarda, jumladan, tashakkurnoma, murojaatnoma kabilarda, norasmiy yozma tilaklar esa turli maishiy-ijtimoiy xat yozishmalari, internet tarmog'i bilan bog'liq saytlar, kanallarda tashkil qilinadigan suhbatlarda, xususan, kommentariyalarda o'z aksini topadi. Og'zaki shakldagi tilaklar qamrovi keng bo'lib, u barcha uslubga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Uning og'zaki rasmiy, og'zaki norasmiy turlari mavjud. Og'zaki rasmiy turlari rasmiy yozma tilaklarning so'zlovchi nutqida ijro etilishidir. Og'zaki norasmiy turlari esa turli ijtimoiy maishiy hayotda yuz beradigan muayyan ijtimoiy voqyealarda o'z aksini topadi. Masalan, *Hayrli tun!* Jumlasini tungi xayrlashuv mazmunida qabul qilinib, tilak ko'rinishini oladi. Ushbu ibora so'zlovchining tinglovchiga tunning yaxshi o'tinishini tilashini bildiradi.

Tilak nutqiy janrining tildagi ifodasi verbal, noverbal va lingvistik atributlar yordamida ham namoyon bo'ladi.

Tilak nutqiy janrining verbal vositalarda ifodalanishi uning so'zlar, jumlar, gaplar va matn shaklida namoyon bo'lishidir.

Masalan, so'z shaklida: *Omad!*

Jumla shaklida: *Hammaga omad!*

Gap shaklida: *Omad yor bo'lsin!*

Matn shaklida: *Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat va olib borayotgan sharaftli ishlarigizda ulkan omadlar tilayman.*

Tilak nutqiy janrining noverbal ifodalanishi esa tilak ma'nosini anglatuvchi hatti-harakat va imo-ishoralardir. Bunda o'ng qo'lini yozib yoki jipslab, tinglovchiga yo'naltirgan holda yuqoriga shiddatli ko'tarish tilak mazmunini ifodaydi. Xuddi shu mazmundagi stikerlar ham tilak nutqiy janrining noverbal vositalariga kiradi.

Xulosa. To'plab o'rganilgan tilak nutqiy janriga oid ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, til tizimida tilak nutqiy janrining lingvistik atributlari ham muayyan o'rin egallaydi. Tilak nutqiy janrining lingvistik atributlari sistemasi murakkab sistema bo'lib, ushbu sistema semiotik xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, tilakka yo'naltirilgan hatti-harakatlar majmui shaxs, narsa-buyum, predmetlarga qaratilganda til tizimida tilak mazmunli turli ijtimoiy diniy irimlar, marosim va odatlarni keltirib chiqaradi. Tilak nutqiy janrining lingvistik atributlari semiotik-pragmatik-funksional mazmunida tilakning kimgadir yoki nimagadir yo'naltirilganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Yo'naltirilganlik xususiyatiga ko'ra adresatga yo'naltirilgan tilaklar ijobiy



(tilak, duo, tabrik kabi) va salbiy (qarg‘ish, so‘kinish, qarg‘anish kabi) tilaklardan iborat bo‘ladi. Bunga ko‘ra adresantga yo‘naltirilgan ijobiy tilak (tabrik, duo – lingvistik atributi: muqaddaslashtirilgan kokil, suv), adresantga yo‘naltirilgan salbiy tilak (ishontirish-qarg‘anish: lingvistik atributi muqaddas kitoblar va ularda muqaddas sanalgan narsa-predmetlar, tuz, non kabi), adresatga yo‘naltirilgan ijobiy tilak (duo, tabrik, maqtoov: turli sovg‘alar), adresatga yo‘naltirilgan salbiy tilak (afsun, sehr-jodu: yomonlikka ishora qiluvchi narsa-buyum, predmetlar) kabilar farqlanadi va bular yuqorida keltirilganidek o‘zining maxsus lingvistik atributlariga ega. Tilak nutqiy janrida tilak va tilak mazmunli lingvistik atributlar kinga yo‘naltirilishidan qat‘iy nazar uning mazmunida tilak nutqiy maqsadi yotadi. Masalan, halq orasida farzandli bo‘lish tilagining lingvistik atributi shaxs yoki predmetni ifodalashi mumkin. Bu holatda shaxsni ifodalaganda ushbu tilak ijtimoiy diniy semiotik xatti-xarakterlar majmuidan iborat bo‘ladi, kishilarning ijtimoiy diniy jihatdan tartiblashtirilgan hatti xarakterlarni belgilangan tartibda amalga oshirishi natijasi hisoblanadi. Hozirda farzand tilash orqali tug‘ilgan farzandlarga halq orasida Inoyatxon, Inomjon, Tilaboldi, Xudoberdi, Olloberdi kabi ismlar qo‘yilishi tilak nutqiy janrining shaxslarga yo‘naltirilgan atributi deb nomlashga asos bo‘ladi. Ayniqsa, bolalarda kokilning belgilangan muqaddas joylarda muqaddas kishilar tomonidan oldirilishigacha bo‘lgan vaqtda bolalarda ushbu kokilga tegmaslik, oldirmaslik shartlari tufayli ushbu kokilning boshqa sochlardan ajralib turishi tilak nutqiy janri lingvistik atributining semiotik voqye‘lanish jarayonidir. Ijtimoiy hayotda kishilarning muqaddas ziyoratgohlarga borib olib kelgan bola sochi, ya‘ni kokil, kishilarning shifo topish istagida ziyoratgohlardagi suvlardan iste‘mol qilishlari kokil va suvning tilak nutqiy janri lingvistik atributlari deb hisoblanishiga lingvistik-semiotik asosdir. Til tizimida bunday lingvistik atributlar qamrovi keng bo‘lib, tilak bilan bog‘liq odatlar va marosimlarning mustaqil tizimi shakllangan. Masalan, yaxshi insonlarning biror narsasini olish o‘sha kishi darajasiga yetish tilagi borligini bildiradi. Masalan, *yaxshilarning yaxshisin yaxshi ko‘rgan yaxshimi, yoki yaxshi narsasin olib qo‘ygan yaxshimi (qo‘shiqdan)*. Armiyaga ketayotgan o‘g‘ilga non tishlatish nonini qolgan qismini yeyishga qaytib kelishi tilagining semiotik ifodasidir.

Tilak nutqiy janrida ichki va tashqi nutqning ifodalanishi ham o‘ziga xosdir. Tashqi nutq tilak nutqiy janrining og‘zaki ko‘rinishlarining barchasida o‘z aksini topadi, ichki nutq esa kishilarning ichki kechinmalari va xisssiyotlari bilan bog‘lanadi. Ichki nutqning voqye‘lanishi ko‘proq turli diniy marosimlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, mushkulkushod tadbirida ayol kishining o‘z niyat va tilaklarini navbatma-navbat aytib paxtani oqizish kabi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi (president.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi halqaro konferentsiya ishtirokchilariga bayram tabrigi.
4. O'zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi.
5. Базарова М. Ўзбек тилидаги ижобий истак мазмунини ифодаловчи нуткий бирликларнинг лисоний хусусиятлари (дуолар ва нуткий этикетлар мисолида). филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б. 3-21.
6. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 428-472.
7. Вежбицка А. Речевые акты. // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1985. – Вып.15. Лингвистическая прагматика. – С. 251-276.
8. Вежбицка А. Речевые акты. // Жанры речи. – Саратов, 1997. – Вып. 1. – С. 99-111.
9. Дементьев В. Теория речевых жанров (Коммуникативные стратегии культуры). – М.: Знак, 2010. – 584 с.
10. Шерстяных И.В. Теория речевых жанров: лекционно-практический курс для магистрантов. – М.: ФлИнта, 2014. – 546 с.

РЕЗЮМЕ

Мақоллада tilak nutqiy janrining o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsiya va uslubiy xususiyatlari, verbal, nonverbal vositalari va lingvistik atributlari, nutqiy vaziyatga ko'ra funksional o'zgarishi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются конкретная речевая цель, состав и стилистические особенности речевого жанра "пожелание"; обсуждаются вербальные, невербальные средства и языковые признаки, особенности функционального изменения в зависимости от речевой ситуации.

SUMMARY

The article examines the specific speech purpose, composition and stylistic features of the speech genre "wish"; verbal, non-verbal means and language signs, features of functional changes depending on the speech situation are discussed.